

**XAMSANAVISLIKDA “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI YOSHLAR  
OBRAZINING TADRIJIY TARIXI VA DOSTONLARDAGI POZITSIYASI**

Shomurodova Maftuna Ubaydulloevna

Termiz davlat universiteti o’zbek filologiyasi fakulteti

adabiyotshunoslik:o’zbek adabiyoti ta’lim yo’nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6654043>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada xamsanavislikdagi “Farhod va Shirin” dostonining yaratilish tarixi, qahramonlari tarixi, va ularning dostonlardagi pozitsiyasini o’rganish jihatdan tahlilga tortilgan.

**Kalit so’zlar:** doston, obraz, Farhod, Shirin, xalq og’zaki ijodi, tarix,

**ЭВОЛЮЦИОННАЯ ИСТОРИЯ ОБРАЗА ЮНОШИ В ЭПОСЕ “ФАРХОД И ШИРИН” У ГАМСАНАВИ И ЕГО ПОЛОЖЕНИЕ В ЭПОСЕ**

*Аннотация.* В данной статье анализируется история создания эпоса “Фарход и Ширин” в Гамсанависе, история героев и их положение в былинах.

**Ключевые слова:** поэма ,образ, Фархад, Ширин, фольклор, молодость, история.

**THE EVOLUTIONARY HISTORY OF THE IMAGE OF YOUTH IN THE EPIC  
“FARHOD AND SHIRIN” IN HAMSANAVIS AND ITS POSITION IN THE EPICS**

**Abstract.** This article analyzes the history of the creation of the epic “Farhod and Shirin” in hamsanavis, the history of the heroes and their position in the epics.

**Key words:** epic, image, Farhod, Shirin, folklore, history

### **KIRISH**

Ma’lumki, Sharq xalaqlari badiiy ijodida mushtarak bo’lgan ayrim sayyor sujetlar, ayni vaqtida qardosh xalqlar adabiyotining namunalarida ham mazmunan bir-biriga yaqin tarzda talqin etiladi. Adabiyotshunoslar tomonidan Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy dostonlarini qiyosiy o’rganishlari natijasida shu narsa ma’lum bo’lganki, har bir doston shaklan o’ziga xos tuzilishga ega, g’oyaviy-badiiy jihatdan turli yo’nalishda. Navoiy o’z oldiga qo’ygan maqsadiga mos, uning ijodiy, ruhiy, pisixologik, didaktik qarashlarining mohiyatiga muvofiq qahramonlarini shakillantirgan. Shu tufayli asarning qahramonlar olaminini tadqiq qilish, ularning xarakterlaridagi umumiylilik, farq qiluvchi jihatlarni aniqlash, ayrim epizod va qahramonlarning genetik ildizlarini izlash muhimdir. Shuning uchun biz ishimizni eng avvallo Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi yoshlari obrazining badiiy evolutsiyasi tarixiga nazar tashlashdan boshladik.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektiv usulidan foydalanildi.Mazkur tadqiqotda Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi yoshlari obrazining tarixiy, tadrijiy evolutsiyasining qiyosiy tahlili berildi. Sharq adabiyotida Alisher Navoiygacha yaratilgan “Xusrav va Shirin”, “Farhodnoma” kabi nomlar bilan yuritilan asarlar mavjud bo’lgan. Xususan, Farhod haqida hikoya qiluvchi eng qadimgi rivoyatlar, qissalar, shuningdek, Sharq adabiyoti tarixida to’ng’ich xansanavis sifatida tanilgan ulug’ azarbajyon shoiri Nizomiy Ganjasviy(1141-1209)ning “Xusrav va Shirin”, Orif Ardabiliy(XIV)ning “Farhodnoma”, Xusrav Dehlaviyning (1253-1322)ning “Shirin va Xusrav” dostonlari asosida obrazlar talqin qilindi

## TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Ulug' zotlar asarlari hamisha inson tarbiyasida katta ahamiyat kasb etib kelgani azaldan ayon. Bobokalonimiz Alisher Navoiy ham ana shunday buyuk ijodkorlar safidan mustahkam o'rin olgan. Uning asarlari insonparvarlik, do'stlik, xalqlar do'stligi g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, ularda haqiqiy sevgi, adolat kabi eng oliy insoniy xislatlar o'zining ifodasini topgan.

"Navoiy "Xamsa"siga kirgan dostonlarning syujetlari Yaqin Sharqning yozuv poeziyasiga kirmasdan oldin turli xalqlarning folklorida yuritilgan chiroyli ertak, afsona, rivoyarlardan iborat edilar" [5.23]

Xisrav- Farhod- Shirin syujeti o'zining yaratilgan muhiti jihatidan Eron va Orta Oaiyoga yaqinroq edi. Sosoniylardan 22-hukmdor bo'lган Xusrav Parvez(VI-VII asrlar) haqidagi afsonalar shubhasiz yozuv adabiyotiga kirmasdan ancha ilgari xalq orasida kuylangan edi. Xisravning ishqiy mojarosini birinchi o'laroq yozuv adabiyotida ishlagan Firdavsiy "Shohnoma"ning IV jildida "Dostoni Xisrav Parvez va Shirin" faslini kiritgan. Maqsud Shayxzoda o'zining "Navoiy ijodidab folklor motivlari" ishida shunday yozadi:

Kunun dostoni ko'han nav kunam,

Suxanhoyi Shirinu Xisav kunam

(endi eski dostonni yangilayman, Shirin va Xisrav so'zlarini so'zlayman). Firdavsiyning iqrорidan ko'rинадики. Bu syujet bundan ancha ilgari xalq orasida yashagan.[5.24]

Fitrat ham shu jihatga e'tibor qaratib: Doston quyidagi so'zlar bilan "Endi eski dostonni yangilatay, Shirin bilan Xusravdin so'zlar so'zlay, ul to'g'ri kishilarning so'z va ishlaridan iborat bo'lg'an bu qadim doston eskirgandir" [1.107] - deydi. Mazkur boshlanish shuni ko'rsatadiki, doston Firdavsiygacha ayrim mustaqil dostonlar shaklida anchadan buyon mavjud bo'lган. "Shohnoma"dagi doston bo'yicha, Xustav ovga chiqqan vaqtida Shirinni uchratadi, uni saroya keltirib haramiga oladi. Shirin Maryamni zaharlab o'diradi. Xusrav "Toqi Vois"ni bunyod etadi. Oxirida Xisravning Maryamdan bo'lган o'g'li Sheruya otasini o'ldiradi, shohlikni egallaydi. Shiringa uylanmoqchi bo'lганida, Shirin Xisravning qabriga kirib o'zini zaharlaydi. Firdavsiyning "Shohnomasida" Farhod ismi tilga olinmaydi. Bizlar tadqiqqa tortmoqchi bo'lган yoshlardan bir Shopur ham asarning boshqa qismlarida tilga olingan bo'lsada, aynan shu qismida gapirilmaydi.

Farhod qissasi Sharq adabiyotida keng tomir otgan va ko'pchilik adabiyotlarga kirib borgan. Buning asosiy sababilaridan biri Farhod qissasida hamisha insonning eng zaruriy ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarning aks etishida, Farhod obrazida esa mehnatkash xalqqa xos bo'lган juda ko'p fazilatlarning mujassamlashganligidadir. Afsonalardagi yoshlar obrazlari ichida Farhod isony muhabbat, mehnat va ijodga ilhomlantirgan faol inson sifatida alohida ajralib turadi. O'rta asr Sharq adabiyotida "Xamsa"chilik an'anasining paydo bo'lishi Farhod obrazining kelajagini belgilab, uni umrivoqiy qahramonlar qatoriga olib chiqdi. Yaratuvchi, kurashchi qahramonlar badiiy asarlarda ko'pincha Farhodga o'xshatilar, ularga Farhoddekk salobat, kuch-g'ayrat orzu qilinardi. Nizomiy tomonidan "Xisrav va Shirin" dostoning yaratilishi bilan xalq tilida mavjud afsonalarning eng yaxshi an'alarini o'zida jamlagan Farhod obrazi liro-epik asarlarning qahramoniga aylandi. Dostondagi Farhod obrazi mehnatkash xalq ichidan yetishib chiqqan kishining umumlashma obrazi yaratilishi jihatdan o'z davrida faqat ozarbayjon adabiyotidagina emas, balki o'rta asr sharq adabiyotida muhim hodisa bo'ldi. Badiiy asarlarda toshtarosh va me'mor sifatida mashhur bo'lib kelgan ushbu Farhod obrazining yaratilishiga

qadimgi Farhod kultining prototiplik vazifasini o'taganligini S. Erkinov o'z tadqiqotida keltiradi. Olimning "Navoiy "Farhod va Shirin"i va uning qiyosiy tahlili" nomli risolasida Farhod bilan birgalikda Shirin obrazi tarixi haqida ham birqancha fikrlarni keltirib o'tadi. Jumladan, "Avesto" kitobida suv mabudasi Ardisura – tilga olinadi. U qaddi-qomati kelishgan, sohibjamol bir ayol qiyofasida tasvirlanadi. Hamma vaqt suv serobligi, mo'l-ko'lchilik tarafdori Shirin obrazi dastlab ana shu Ardisura haqidagi afsonalardan bahramand bo'lgan degan taxmini ilgari surgan. S. Erkinovning ta'kidicha Trever, Gibbon kabi olimlar "Avesto"da suv ma'nosiga ega bo'lgan Sura, Sira so'zlarida Shirin so'ziga yaqinlik ko'rgan edi deydi. Bu fikrni tasdiqlovchi talaygina dalillar mavjud, xususan, Xusrav Parvezning xotini Shirinning nomi ham qadimgi tarix asarlarida faqat Shirin tarzida emas, balki Sira shaklida ham uchraydi. Shirin nomini shir-sut ma'nosiga ega deb bildirilgan fikrlar ham mavjud. Badiiy asarlarda Shirinning yoshlikdan yangi sog'ib olingen sutni yaxshi ko'rishi, shu sababli sut arig'i qazdirganligi to'g'risidagi hikoyalardan Shirin so'zida shir-sut ma'nosining mavjudligini taxmin qilish mumkin.

Sharq adabiyotiga oid birmuncha tadqiqot ishlarida Shirinning tarixiy shaxs ekanligi, bu go'zal va iffatlari ayol to'g'risidagi hikoyalari keyinchalik butun bir dostoniga aylanib ketganligi aytildi. Tarixda mashhur bo'lgan Shirin VI asr oxiri, VII asr boshlarida yashagan. Shirin to'g'risidagi dastlabki ma'lumot ham ayni shu davrda yashagan Vizantiya tarixchisi Feofilaktning tarix kitobida uchraydi [2.23]. S. Erkinov: "Suriya anonym solnomasi" asarida Shirin arameyanka deb ko'rsatiladi. Mazkur asarda xusrav Parvez haqida so'z ochilib, uning xiristian diniga mansub ikki xotini – "Arameyanka – Shirin va romeysanka - Mariyam", bor edi", - degan fikrni qayd qiladi. Shirinning tug'ilgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarda ham ana shunday qarama-qarshiliklar mavjud: Azarbajjonda tug'ilgan yoki Arman yerlarida voyaga yetgan; S. Erkinov o'z kitobida "G. Begdeli Nizomiy Shirinni turk go'zali sifatida tasvirlagan, deb yozgan edi" [2.24], - degan faktni keltiradi. O'rta Osiyoda yaratilgan qadimgi afsonalarda Shirin Xorazmshohning qizi sifatida tilga olinadi. Shunday qilib Shirin haqida yaratilgan afsonalar ham ko'p variantli bo'lib, ularning aksariyatida Shirin va Xusrav munosabatlari markaziy o'ringa ega bo'lsa, ikkinchi bir guruhda Farhodning Shiringa bo'lgan o'tli muhabbatini haqida hikoya qilingan.

Farhod hikoyatining "Xusrav va Shirin"ga kelib qo'shilgan davri ilmiy adabiyotlarda X asr deb ko'rsatiladi. Shunday qilib, adabiyotda toshtarosh va me'mor sifatida talqin etilgan Farhod, suv mabudasi deya tilga olingen Shirin obrazlari o'zining mifologik prototipiga xos sifatlarni saqlab qolgan. Shirin juda ko'p sarguzasht qissalarda bo'lgani kabi faqat sevgi va vafo ramzigina emas, u bunyodkorlik homiysihamdir. Shirin ko'pgina asarlarda insoniylikni kishilarning fe'l-atvori, kurash va intilishlari, mehnatga bo'lgan munosabatlariga qarab baholovchi sifatida taniladi.

Farhod qissalarida muhabbat mavzusining mehnat mavzusi bilan bir butun holda ifodalanishi asarning asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Navoiyning butun "Xamsa"sidagi izlanishlari "Farhod va Shirin"da yaqqol ko'zga tashlanib turadi [3.30]. Navoiy Farhodni har tomonlama barkamol inson sifatida ishlashga alohida diqqat bilan qaragan. Navoiy Farhodning romantik sevgi sarguzashtini hikoya qilish jarayonida o'z qahramonidagi hunar va iste'dod egasiga xos yangi qirralarni jonli mehnat jarayonida gavdalantirish bilan qissaga keng ma'noda epiklik baxsh etdi. Navoiy an'anaviy Farhod qissasini qalamga olar ekan, uning doirasida yangi mavzu kashf etdi. Masalan, dostonda

markaziy qahramonlarning ko'p qirrali faoliyatini epik planda ko'rsatilishi bilan faol buniyodkorlikni, el ko'rki, yurt bezagi sifatida tasvirlagan. Jamiyat hayoti uchun ofat bo'ladijan istilochilikka qarshi norozilikdan iborat yangi konfliktning paydo bo'lishi, ayni vaqtida har bir xalqning mustaqillik g'oyasinig badiiy ifodalaanishi Navoiyning insonparvarlikdagi yangi belgilarning ifodasi sifatida diqqatni tortadi.

Navoiy yaratgan Xusrav obrazi Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlarinig bosh qahramonlariga tomoman qarama-qarshi bo'lib, u ikkinchi darajali personaj, salbiy tip darajasiga tushurib qo'yilgan. Bu bilan Navoiy o'zigacha bo'lgan adabiyotda uzoq asr davomida yashab kelgan mavzu va qahramon uchun islomgacha bo'lgan manbalarga murojaat etishdan iborat an'anuning chegarasini yorib o'tdi, uni rad etdi. Farhodni markaziy qahramon darajasiga ko'tardi. Chin shahzodasi, ayni vaqtida mehnatkash xalqqa xos juda ko'p fazilatlarni o'zida jamlagan Farhod obrazini yaratar ekan, o'z xalqining uzoq tarixi bilan bog'langan, orzularini ifodalagan qahramon timsolini gavdalantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Ideal qahramonlarni kuylash orqali mamlakat mustaqilligining samaralarini: qurilishlar, suv inshootlari barpo etish va boshqa hayotiy muammolarga diqqatni tortdi. Shoir buning uchun vayronagarchilik keltiruvchi urushlarga qarshi kurashish g'oyasini ham alohda masala qilib qo'ydi.

### **XULOSA**

Ushbu qisqacha tadqiqotdan shu ayon bo'ladiki, buyuk mutafakkir mir Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga qadar qahramonlari turli evolutsiyani bosib o'tganligiga guvohb bo'lamiz. Dostonlarida biz, avvalo, inson sharaf-g'ururini, erk-huquqini, yuksak insoniy fazilatlarni yetuk badiiyat bilan ulug'lagan, zulm va zo'ravonlikni inkor etib, sevgi va sadoqatga madh o'qigan buyuk insonparvar daho ijodkor Navoiyni ko'ramiz. Dostonlarda zolim hukmdorlarni qoralab, odil va orif shoh g'oyasini olg'a surayotgan, urush-qirg'inlarni qoralab, do'stlik-hamkorlikni targ'ib etayotgan, mamlakat obodligi va el va ulus farovonligi uchun qayg'uruvchi yirik davlat arbobi, mutafakkir Navoiy bilan o'z ona tilining obro'-e'tiborini himoya qilib uning keng imkoniyatlarini amalda isbot etishga kirishgan otashin vatanparvar Navoiy bilan uchrashamiz. Uning g'oyalari, nafaqat, o'z davri uchun, balki, hozirgi jamiyatimiz uchun ham suv va havodek zarur ekanligiga guvoh bo'lib turibmiz.

### ***Adabiyotlar ro'yxati***

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. Ma'naviyat, 2000-yil, 208-bet
2. S. Erkinov. Navoiy "Farhod va Shirin" I va uning qiyosiy tahlili. "Fan", T., 1971-y. 276-bet
3. T.Jalolov, Go'zallik olamida.. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent., 1979-y, 328-bet
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-y., 590-bet.
5. Maqsud Shayxzoda. Mukammal asarlar to'plami. 6 tom, 4-tom. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972-y., 372-bet.
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi